

FARGONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

**Farg'ona viloyati Dang'ara tumani xalq ta'limi
muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va
tashkil etish bo'limiga qarashli 11-umumiy o'rta
ta'lim maktabi o'qituvchisi Abdugapparov
Abdurashidning 6-sinf
“ Vatan tuyg'usi“ faniga mo'ljallangan**

DARS ISHLANMASI

Darsning texnologik xaritasi

Fan:	Vatan tuygusi
Mavzu:	T A R I X I Y X O T I R A
Kalit soʻzlar	Maʼnaviyat, mustabid tuzum, milliy ozodlik harakati, qatag'on qurbonlari
Mavzuning qisqacha taʼrifi	
Hayotimizda qanday o'zgarishlar ro'y berganini baholash uchun bizga sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qanday tarixiy meros qolganini yana bir karra eslash.	
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	
Metod: aqliy hujum, muzyorar usulidan foydalanish	
Shakl : savol- javob, guruhlarda ishlash .	
Vositalar: mavzuga oid koʻrgazmalardan test va tarqatma materiallar .	
Nazorat: “ragʻbat” yoki “jarima”kartochkalari bilan, yigʻilgan kartochkalarni umumlashtirgan holda	
Baholash: 5 ballik reyting asosida	
Darsning maqsad va vazifalari	
Taʼlimiy maqsad: Oʻquvchilarga Vatanimiz- Oʻzbekistonda, hayotimizda qanday o'zgarishlar ro'y berganini baholash uchun bizga sobiq Ittifoqdosh, eski mustabid tuzumdan qanday tarixiy meros qolganini yana bir karra eslatish, Vatanimiz odamlari, maʼnaviy, ijtimoiy, siyosiy hayoti bilan yana bir bor tanishtirish, Vatanimiz toʻgʻrisidagi bilimlarini boyitish va mustahkamlash. Bilimini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, erkin fikrlash va oʻz fikrini erkin bayon etishga oʻrgatish. Vatanga muhabbat uygʻotish;	
Tarbiyaviy maqsad: Bilimli, sogʻlom, barkamol insonni voyaga yetkazish. Oʻz yurtiga sadoqatli, mard va fidoyi, komil insonlarni tarbiyalash, yaxshi va yomonning farqiga borishga, hayotda toʻgʻri yoʻl tanlash, xalqimiz va Vatanimizga halol xizmat qilish, bunyodkor gʻoyalarning hayotbaxsh kuchini toʻgʻri anglab, vayronkor gʻoyalarga vaqtda zarba berishga oʻrgatish . Guruh bilan “ bir yoqadan bosh chiqarib” ishlashga, “ hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun”, “ birlashgan oʻzar, birlashmagan toʻzar “ maqolining hayotdagi isbotini koʻrsatish bilan oʻquvchilarni birlashib, maslahatlashib, bir-birini fikrini hurmatlashga oʻrgatish;	
Rivojlantiruvchi maqsad: Maʼnaviyat, mustabid tuzum haqidagi bilim va tushunchalarni, milliy ozodlik harakati, qatag'on qurbonlari haqidagi ma'lumotlarni zamonaviy pedagogik usullar, maʼrifiy yoʻllar bilan tushuntirish, yosh avlodda yuksak fazilatlarni, sogʻlom eʼtiqod, dunyoqarash va gʻoyaviy immunitet asoslarini, mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish, oʻquvchilar qalbi va ongida gʻoyaviy boʻshliqni vujudga kelishiga yoʻl qoʻymaslik va 5-sinfda olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish;	

Kutilayotgan natijalar

Dars yakunida bilib oladi (bilim): Ma'naviyat, mustabid tuzum, milliy ozodlik harakati, qatag'on qurbonlari haqida;

Dars yakunida tushunadi (ko'nikma): Mustaqillikka osongina erisgmaganimizni, uni ko'z qorachig'idek asrash lozimligini;

Dars yakunida o'quvchi bajara oladi: jadid bobolarimizni suratidan ajrata oladi, qatag'on qurbonlari haqida ma'lumot bera oladi;

Dars jarayoni va uning boshqichlari

Ishning nomi	Bajariladigan ishlar mazmuni.	Metodi	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	a) salomlashish- b)yo'qlama- 1daqqa (navbatchi axboroti tinglanadi); s) guruhlarga ajratish-2 daqiqa		4daqqa
2-bosqich o'tilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum metodi asosida o'tilgan mavzuni takrorlash .	Aqliy hujum	4 daqiqa
3-bosqich Yangi mavzu bayoni	Slayd yordamida o'qituvchining kichik ma'ruzasi	"Menyu"(axborotni navbatma – navbat berish (tarixdan to hozirgi davrgacha) usuli; Slayd taqdimoti .	5 daqiqa.
4-bosqich . Mustahkamlash	Guruhlar 1-topshiriqni bajarishadi: "Mustabid tuzum" va "Jadidchilik harakati"haqida ma'lumot berish; Xotira mashqi:.Guruhlar 2-topshiriqni bajarishadi: Qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyati va ijodidan kim ko'p aytish Guruhlar 3-topshiriqni bajarishadi: Yopiq testlarga kim ko'p to'g'ri javob topish Guruhlar 4-topshiriqni bajarishadi.Hayolan tarixga qaytishib,osha davrdagi voqealar va harakatlarni bir guruh oqlaydi, 2-guruh qoralaydi. 5-topshiriq: Darslikning 36-betidagi savollarga og'zaki javob topish	Klaster usulida Og'zaki Yopiq testlar "Debat" usulidan foydalanishib	28 daqiqa
5-bosqich. Baholash. Darsni xulosalash	Guruhlarda bajarilgan ishlar bo'yicha to'plangan rag'bat yoki jarima, guruh sardorlari yordamida.	Rag'bat va jarima orqali.	3 daqiqa.

6-bosqich. Uyga vazifa.	Mavzuni yana bir bor o'qib, krossvord tuzish		1 daqiqa.
----------------------------	--	--	-----------

Yangi mavzu bayoni

Inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbati ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Hayotimizda qanday o'zgarishlar ro'y berganini baholash uchun bizga sobiq Ittifoqdan, eski mustabid tuzumdan qanday tarixiy meros qolganini yana bir karra eslashimiz zarur"

("Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch " asaridan)

“ Xotira ”ga ta’rif:

Odamzodni boshqa jonzotlardan ajratib turadigan muhim jihatlardan biri uning xotiraga ega ekanligidir.

O'z ajdodlarini-yetti pushtini, oilasi, mahallasi, shahri yoki qishlog'I, o'tmishini, Vatani tarixini bilmaydigan odamni ildizidan ajralgan daraxtga qiyoslash mumkin

Ildizsiz daraxt o'sib-ummagani, albatta qurib bitishi tayin bo'lgani singari, tarixiy xotiradan judo bo'lgan odamning kelajagi samarasizdir.

Insonni inson qilib turadigan, unga”men”lik ato etadigan narsa xotira sanaladi.

Xotira-millat tarixini, uning qadriyatlarini, madaniyati va ma'naviyatini, bir so'z bilan aytganda, millat o'zligini mujassam etadigan buyuk qadriyat.

Tarixiy xotira yordamida mard va tanti, oqil va donishmand, qahramon va fidoiy ajdodlarimiz bilan g'oyibona ko'rish, suhbat qurish, dunyoning qanchadan- qancha sirlaridan bahramand bo'lish, buyuk xalq, muqaddas Vatanning farzandi ekanidan faxrlanish, boshni baland ko'tarib yurish mumkin.

Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirda chinakam tarix bo'ladi.

"Mustabid" so'zi arabcha so'z bo'lib, istibdod, yani sitam, zulm degan ma'nolarini anglatadi. Mustabid sovet hokimiyati davrida xalqimizning tarixi soxtalashtirilib, bizni yolg'on va bo'xton gaplarga ishontirishga harakat qilishar edi.

Xalqimizni tarixiy xotirasidan butunlay mahrum etib, ota-bobosini, millatini tanimaydigan manqurtga aylantirishga uringan.

Mustamlakachilar bizning ozod bo'lishimizni, o'z boyligimizga, o'z taqdirimizga o'zimiz egalik qilib, erkin va farovon hayot kechirishimizni aslo istamas edi.

Tarixga nazar

Xalqlarning ko'p asrlik tarixining, madaniyatining ramzi va guvohi bo'lgan machitlar, cherkovlar buzib tashlandi, bebaho yozma manbalar yoqib yuborildi. Maqsad : o'zlarining yangi dunyolarini qurishdir. Jumladan marksizm andozalari asosida "sotsializmni qurish" rejasini amalga oshirish yo'lida jahon tarixida hali uchramagan "Buyuk tajribalar" o'tkazdilar. Kollektivlashtirish, Madaniy inqilob, Deportatsiya, siyosiy qatag'onlar shular jumlasidandir.